



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 27-iyul

369-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2024-yil 25-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mahallalarni obodonlashtirish, ko‘kalamzorlashtirish va qiyofasini tubdan yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 25-iyundagi PQ-234-son qarori ijrosini ta‘minlash haqida”gi 336-6-0-Q/24-sonli qarori to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mahallalarni obodonlashtirish, ko‘kalamzorlashtirish va qiyofasini tubdan yaxshilashga doir qo‘shimcha choratadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 25-iyundagi PQ-234-son qarori hamda Namangan viloyati hokimining 2024-yil 25-iyuldagi 336-6-0-Q/24-sonli qarorlari ijrosini ta‘minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2024-yil 25-iyuldagi 336-6-0-Q/24-sonli qarori rahbarlik va amalda bajarish uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur qarori bilan:

O‘zbekiston mahallalari uyushmasi, Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligining Farg‘ona viloyati, Bag‘dod tumani, “Yuksalish” MFY tajribasi asosida joriy yil yakuniga qadar 1-ilovaga muvofiq mahallalarda, eksperiment tariqasida, xususiy sektor ishtirokida mahalla obodligini ta‘minlash bo‘yicha tubdan yangi tizimni joriy etish to‘g‘risidagi taklifi ma‘qullanganligi;

belgilanishicha, mahalla obodligini ta‘minlash bo‘yicha eksperiment doirasida:

mahallalarda mahalla obodligi bilan shug‘ullanuvchi “Mahalla servis kompaniyasi” (keyingi o‘rinlarda - Servis kompaniyasi) faoliyati tashkil etilishi;

Servis kompaniyasi mahalla fuqarolar yig‘ini kengashining qarori asosida salohiyatli tadbirkorlar orasidan tanlab olinishi;

mahalla fuqarolar yig‘ini hamda Servis kompaniyasi o‘rtasidagi xizmat ko‘rsatish shartnomasini tuzish, istisno tariqasida, to‘g‘ridan-to‘g‘ri amalga oshirilishi;

Servis kompaniyasiga mahallalar binosi hududida bepul foydalanish huquqi asosida xonalar ajratiladi hamda 2-ilovaga muvofiq zarur texnik vositalar va uskunalar ularni soz va ishchi holatda saqlash sharti bilan bepul foydalanishga berilishi;

Servis kompaniyasiga ustuvor ravishda mahallada istiqomat qiluvchi, vaqtincha ishsiz, mavsumiy ishlarga chiqadigan fuqarolar jalb qilinishi;

Servis kompaniyasi hudud obodligini ta'minlash ishlarini mahalla fuqarolar yig'ining buyurtmasi va nazorati asosida amalga oshirishi;

O'zbekiston mahallalari uyushmasi (keyingi o'rinlarda - Uyushma) tomonidan Servis kompaniyalarining reyestri yuritilishi;

mahalla aholisining obodonlashtirish va tozalik bilan bog'liq muammolarini doimiy ravishda o'rganish hamda bartaraf etish uchun mazkur qarorga 1-ilovada ko'rsatilgan mahalla fuqarolar yig'inlariga qo'shimcha bir nafardan xodim ajratilishi;

belgilanishicha, Servis kompaniyalari:

mahalla fuqarolar yig'ining buyurtmasi asosida obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish xizmatlarini bajarishi, ariqlar va sug'orish tizimlarini tozalashi, ko'chalarning tozaligini ta'minlashi, ko'chatlar ekishi va parvarishlashi;

shartnoma asosida ijtimoiy soha obyektlarida obodonlashtirish va kommunal ekspluatatsiya xizmatlarini ko'rsatishi;

shartnoma asosida chiqindilarni yig'ib saralashi va chiqindi korxonalarini tomonidan olib chiqib ketilishini tashkil etishi;

aholining ehtiyojlaridan kelib chiqib, 3-ilovaga muvofiq boshqa turdagi ijtimoiy ahamiyatdagi pulli xizmatlarni ko'rsatishi;

Servis kompaniyalari mahallani obod qilish bilan bog'liq ishlarni bajarish, shuningdek, mahalla aholisiga mazkur qarorga 3-ilovaga muvofiq boshqa turdagi ijtimoiy ahamiyatdagi pulli xizmatlarni ko'rsatish doirasida foyda, mol-mulk va yer soliqlari hamda ijtimoiy soliq to'lovlarini to'lashdan, shuningdek, Servis kompaniyasi ishchi xodimlari jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'idan ozod etilishi e'tiborga olinsin.

3. Tuman hokimining o'rinbosari X.Boylarov, O'zbekiston mahallalari uyushmasi tuman bo'limi (Qodirov), Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi tuman bo'limi (Xudoyberdiyev), Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi tuman bo'limi, Kadastr palatasi tuman bo'limi (Axmedov) o'n kun muddatda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 25-iyundagi PQ-234-son qarori 1-ilovasiga muvofiq mahallalarga tutash bo'lgan hududlarda chiqindi yig'ish shoxobchalarini qurish uchun yer maydonlari ajratilishini bo'yicha o'z takliflarini kiritсин.

4. Mazkur qaror ijrosini samarali tashkil qilishga mas'ul va shaxsiy javobgar etib O'zbekiston mahallalari uyushmasi tuman bo'limi O.Qodirov belgilansin.

5. Qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o'rinbosari X.Boylarov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi v.v.b



B.Muydinov